

XX ASRNING 30 – YILLARIDA ADABIY OBZOR RIVOJI

Jamolova Zilola Nizomovna

Tadqiqotchi,

Buxoro Davlat universiteti,

Buxoro, O‘zbekiston

Аннотация. Мақолада адабий танқиднинг фаол жанрларидан бири бўлган адабий обзорнинг XX асрнинг 30-йилларидағи ривожи, ютук ва камчиликлари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: адабий танқид, адабий обзор, жанр, изоҳ, хулоса, умумлаштириш, адабий жараён.

Abstract. The article examines the development, achievements and shortcomings of the literary genre in the 30 of the 20th century, which is one of the active genres of literary criticism.

Key words: literary criticism, literary review, genre, commentary, summary, generalization, literary process.

Adabiy tanqid zamonaviy badiiy asarlarni xalq hayoti bilan bog‘liq holda o‘rganadi, baholaydi, yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatib, shoir va yozuvchilarning ijodiy takomiliga yordam beradi. Adabiy tanqid mana shu vazifalarni bajarishda turli janrlar va shakllarga boy, taqriz, adabiy obzor, adabiy-tanqidiy maqola, adabiy portret, esse, tanqidiy-biografik ocherk, adabiy suhbat singari janrlar ancha faol bo‘lib, adabiy-tanqidiy fikrning o‘sishiga yordam berib kelayapti. Ular o‘zbek adabiy tanqidchiligidagi keng qo‘llaniladi.

XX asrning 30-yillarida adabiy tanqidi yosh bo‘lishiga qaramay adabiy-

tarixiy jarayonda faol rol o‘ynadi. Bu davrda yaratilgan adabiy obzorlar adabiyot rivojiga doir ko‘pgina asosiy masalalarini ko‘tardi, adabiy hodisalar, yozuvchilar va ularning asarlari haqida muhokama yurgizdi, ularga asosan to‘g‘ri baho berdi va shu yo‘l bilan adabiyotning to‘g‘ri rivojlanib borishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu davr adabiyotini, tanqidchilik va adabiyotshunoslikning bosib o‘tgan yo‘llarini sharhlaydigan materiallar juda ko‘p bo‘lib, “ularda 20-30 yillardagi o‘zbek adabiyotidagi real holatlar, maqsad va orzular adabiyotimizning saviyasiga ko‘ra aks ettirilgan”, -deb yozadi bu davr ijodini o‘zining adabiy obzorlariga keng o‘rgangan adabiyotshunos Rahmat Majidiy. To‘g‘ri, adabiy obzorlarda adabiy harakat va ijodiy masalalarga, adabiyot sohasidagi kurash masalalariga ko‘p o‘rin berilganini o‘sha davr mafkurasi bilan bog‘lash to‘g‘riroqdir. Masalan, uning “Jadidizm va jadid adabiyoti” adabiy obzori bugungi kunda eskirgan obzorlardan sanaladi. Shu nuqtai nazaridan olimning obzorlari janr talabi nuqtayi nazaridan tadqiq etishga harakat qilindi.

Raxmat Majidiy adabiy obzorlarini adabiyotning alohida turlari sharhiga bag‘ishlaydi. “Poeziya to‘g‘risida”, “Proza to‘g‘risida”, “Dramaturgiya to‘g‘risida”, ‘Adabiy tanqid to‘g‘risida” deb nomlangan obzorlar fikrimizga misol bo‘ladi. She’riyat haqida fikr yuritar ekan, tanqidchi G‘ayratiy, Uyg‘un, G‘afur G‘ulom, Oybek, Elbek, H.Po‘lat kabi shoirlar she’rlariga munosabat bildiradi, ko‘proq davr she’riyatini tanqid qiladi. Tanqidchi shu bilan birga mazmunga e’tibor qilmasdan turib, shaklga berilib ketishning zararini misollar bilan ko‘rsatadi. Yaratilayotgan she’rlarning kitobxonlar ommasiga tushunarli va badiiy yuksak bo‘lishi uchun muhim o‘rin tutadigan til masalasiga ham e’tibor qaratadi.

Adabiyotning “eng zarur, eng muhim va qiyin turi bo‘lgan” dramaturgiya muammolari obzor qilinar ekan, ancha yutuqlar qo‘lga kiritilganligi, shu bilan

birga ulardagи kamchiliklar ham ko‘pligi (m: Real turmushimizni haqiqiy, rost ravishda bera bilmaslik, yuzakichilik, sxematizm va h.k.) sharhlash orqali ko‘rsatiladi. Bu sohani rivojlantirish zarurligi A.V.Lunacharskiydan iqtibos olinib, ta’kidlanadi, aniq vazifalar ko‘rsatib beriladi.

Adabiy tanqid sharhiga bag‘ishlangan obzorda olim tanqid sohasidagi qizg‘in kurashlarga e’tiborini qaratadi. Abdurahmon Sa’diy, Vadud Mahmud ijodiga baho berar ekan, ko‘proq davr mafkurasidan kelib chiqib, xatolarga yo‘l qo‘yadi, Cho‘lpon ijodi borasidagi munozaralarni ham o‘z davri nuqtai nazaridan tahlil qiladi, sharhlaydi. Otajon Hoshim, Miyonbuzruk Solihovlarga munosabatda ham bu biryoqlamalik yaqqol ko‘rinadi. Shu o‘rinda “O‘tkan kunlar”ni tahlil qilgan Sotti Husaynga to‘g‘ri baho bergenini ham aytib o‘tish lozim. “Sotti Husaynning “O‘tkan kunlar” bo‘yicha Qodiriyning mafkurasini ko‘rsataman deb uringan yaxshi tilagiga qaramasdan, u o‘z tekshirishida juda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘ygan” . Adabiy obzor nihoyasida keltirilgan, olimning adabiy tanqidning vazifalari, tanqidchining adabiyot rivojidagi o‘rni, keljakdagi qilinadigan ishlar haqidagi mulohazalari bugun ham eskirmagani ko‘rinadi.

Bu davrda yaratilgan adabiy obzorlardan biri “O‘zbek sovet poeziyası yangi bosqichda” adabiy obzori Homil Yoqubov qalamiga mansub bo‘lib, u O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining plenumi oldidan yozilgan, adabiy obzorda XX asrning 30-yillari, aniqrog‘i 1937-yilgacha bo‘lgan davrda yaratilgan asarlar tahlil qilingan, baholangan, yutuq va kamchiliklar ko‘rsatib berilgan. Shu jihatdan u janr talabiga javob bera oladi, ammo adabiy obzor sho‘ro davri mafkurasi g‘oyalari bilan to‘yintirilgan, shu bois unda eskirgan qarashlar, davr mafkurasi ruhidagi asarlarni tilga olish tamoyili anchagina ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Oybek avvalgi tushkun kayfiyatidan xoli bo‘lganligini, bir qancha

dostonlar yaratgani misolida ko‘rsatadi. “Odam uning tipi va xarakterini ishlashda ularning odamparvarligi, muruvvatli va shafqatli bo‘lishlari, erkka intilishlari va mardliklarini qabartirib, bo‘rttirib berildi”. “Sinfiy kurashning xarakterli tomonlarini yetarli darajada ishontirarli va badiiy to‘liq qilib tasvirlay olmadi” degan tanqidiy fikrlariga bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, Oybekning haq ekanligi yaqqol ko‘rinadi, tanqidchining esa sho‘ro mafkurasi qoliplaridan chiqa olmaganini ham namoyon etadi.

Tanqidchi ijodkorlarga turmushga chuqurroq yondoshuv, undagi hali shakllanib yetmagan hodisalarni ochish, ularning qanday taraqqiy etishi va qaysi ravishda formaga kirishini ko‘rsatishi, “o‘z tevaragidagi urug‘lardan nimalar o‘sib chiqishiini oldindan ko‘rishi lozimligi” taklifini beradi. Ko‘pchilik dostonlarda (G‘afur G‘ulom, G‘ayratiy) yaratilgan obrazlar “umumiyl kishilik chizgilarini o‘zida tashigan odam bo‘lish darajasiga ko‘tarilmagan”, hozirda yangi odam idealini shu kunning tipik kishilari orqali yaratish vaqt yetdi,-deb hisoblaydi. Umuman, tanqidchining yaratilayotgan inson obrazidan ijtimoiylikni talab qilishi ham unchilik to‘g‘ri emasligini ko‘ramiz. She’riyatimiz turmushda shakllangan fakt va hislarni oz qayd etayotganliklari, bu bosqichdan yuqoriga chiqish zarurligi, shu bilan birga inson xislatlarini umumbashariy nuqtayi nazaridan tasvirlash zarurligi “ruh injenerlari”ga ta’kidlab o‘tiladi.

30-yillardan adabiy tanqidda bolalar adabiyotiga e’tibor kuchaydi. Ayrim gazeta sahifalarida” “Bolalar adabiyotiga diqqat qilingiz” rukni ham ochildi. H.Yoqubovning “Bolalar adabiyotining sifatini ko‘taraylik”, Shokir Sulaymonning “Bolalar adabiyoti to‘g‘risida”, Zafar Diyorning “Bolalar kitobi haqida”, Yunus Latifning “Zafarning ijodi haqida” kabi maqolalarida bolalar adabiyotiga oid muammolar ko‘tarib chiqildi; qahramon, badiiy til, shakl masalalari konkret asarlar misolida tahlil etildi. Masalan, “Bolalar va yoshlar

adabiyoti haqida” adabiy obzori ko‘proq tanqidiy ruhda yozilgani bilan e’tiborni tortadi.

XX asrning 30-yillari tanqidchiligidagi adabiy jarayonga, yaratilayotgan asarlarga munosabat bildirishda shoir va yozuvchilar ham faoliylik ko‘rsatdilar. Buni Hamid Olimjon, Oybek va boshqa yozuvchilar faoliyatida ko‘rish mumkin.

Hamid Olimjonning “Adabiyotimizning tikka ko‘tarilish davrida” adabiy obzori O‘zbekiston sho‘ro yozuvchilarining birinchi qurultoyi (1934) munosabati bilan yozilgan. Shoir o‘zbek adabiyotini butun dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan bir adabiyot, xalqqa tegishli adabiyot deb hisoblaydi. Adabiyot sohasidagi o‘sish uning barcha janrlarida o‘z ifodasini topgani, bu eng avvalo poeziyada qo‘lga kiritilgan yutuqlarda ko‘rinishi haqida gapirib, bu yutuqlarga erishishda G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Oybek, Shayxzoda, G‘ayratiy va boshqalarning hissasi borligi, ular fikrlari va badiiy saviyalarini ko‘tarishda muvaffaqiyat qozonganlarini ta’kidlaydi.

Hamid Olimjon nasrchilik ham katta o‘sish yo‘liga kirganligini, oz bo‘lsada, sifatli asarlar yaratilayotganini” o‘zining katta hunarmandligi va go‘zal tili bilan” boyitayotgan yosh hikoyanavis Abdulla Qahhor ijodi misolida ko‘rsatadi. Nasrchilik sohasida “hozircha roman bergen” Shams, Majid Usmon kabilarni tilga oladi. Dramaturgiya mavzu doirasini kengaytirganini Anqaboyning “Shodmon” asari orqali ko‘rsatadi. Umidli yosh yozuvchilar Davron, Temur Fattoh, Orif Yunus, Amin Umariylarni tilga olar ekan, ularning asarlaridan misol keltiradi.

Obzorning xulosa qismida Hamid Olimjon adabiyotning orqada qolayotganini, mamlakat qahramonlarini ko‘rsata oladigan asarlar kamligini tanqid qiladi. “Adabiyotimizning tikka ko‘tarilish davri bo‘lgan so‘nggi davrlarda, ayniqsa, bu ko‘tarilishning zarurligi bor bo‘yicha ko‘rilmoqda”

(Hamid Olimjon “O‘zbek xalqining adabiyoti” 1960.208-b). Xulosadagi bu fikrlar adabiy obzorning sarlavhasiga mos kelishi tanqidchining mahoratidan darak beradi, shu bilan birga shoir obzorda Gorkiydan iqtiboslar keltirib, fikrlarining yanada ishonchli bo‘lishiga erishadi.

Adabiy obzorning o‘qishli va ilmiy-badiiy tafakkur namunasi ekanligini shoirning hissiy fikrlar yuritishida, Jomiy, Vamberidan iqtiboslar olgani, Hamza dramalarining sahnada ijro etilishi bilan bog‘liq xotiralar, ertaklardan parchalar, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonchiligi bilan bog‘liq lavhalarning keltirilishida ko‘rish mumkin. To‘g‘ri, adabiy obzor ayni ikkinchi jahon urushi yillarida (1943) yaratilgan, ammo sho‘ro davrining, mafkurasining kuchli ta’siri sezilib turadi, shunga qaramasdan, mumtoz adabiyoti tarixidan, o‘sha davr adabiyoti rivojidan qoniqish hissi bilan yozilgan adabiy obzor xulosasida aytilgan “O‘zbek xalqi ajoyib adabiyot yaratdi. O‘zbek samimi o‘z xalqlarining muhabbatlariga sazovor bo‘ldilar... uning qudrat manbai Vatanga, ona tuproqqa bo‘lgan otashin muhabbatidadir” degan fikrlar hali ham eskirmaganligi ko‘rinadi.

XX asrning 30-yillarining faol tanqidchilaridan biri Sotti Husayn ham o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi, dramaturgiya masalalari, rus klassik va qardosh xalqlar yozuvchi va shoirlari haqida “O‘zbek dramaturgiyasiga umumiy bir qarash”, “15 yil ichida o‘zbek sovet adabiyoti” (1939) kabi obzorlar yaratdi. Sotti Husaynning “O‘zbek sovet dramaturgiyamizga umumiy qarash” obzori “15 yil ichida o‘zbek sovet adabiyoti” kitobiga kiritilgan. Tanqidchi yaratilgan dramalarni tahlil qilar ekan, ularning hali talabga javob bermasligini ko‘rsatib o‘tadi .

30-yillarda o‘zbek adabiyotshunosligi erishgan asosiy yutuqlardan biri “O‘n besh yil ichida o‘zbek adabiyoti”(1939) asarining chop etilishi bo‘ldi. Adabiy obzorlardan tashkil topgan bu asar ham tanqidchilikning, ham

adabiyotshunoslikning mahsuloti sifatida tavsiflangan. Uning asosiy xususiyati o‘n besh yillik adabiyot materialini ilk bor tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etilganini e’tiborga olib, uni yangi adabiyotshunoslik namunasi deb hisoblashimiz mumkin. Unga kirgan adabiy obzorlarda yangi adabiyotning xalq hayoti va kurashi bilan aloqasi, prinsipial adabiyot sifatidagi xususiyatlari tahlil qilinib, uning yaratuvchilari ijodining taraqqiyot yo‘llari ochib berilgan.

ADABIYOTLAR :

1. Назаров Б.Расулов А.Ахмедова Ш.Қаҳрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2012. – Б. 96.
2. Ҳамид Олимжон. Ўзбек халқининг адабиёти / Китобда: Уч томлик танланган асарлар. 3-том. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт нашриёт, 1960. – Б.205
3. Нурмат О. Болалар ва ёшлар адабиёти ҳақида. Ёш ленинчи: 1938, №12.
4. Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. II томлик. I том – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 123.
5. Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. II томлик. I том – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 150.
6. Раҳмат Мажидий. Истеъодод ва бурч. – Тошкент: Fafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. –Б. 32.
7. Ёқубов Ҳ. Ўзбек совет поэзияси янги босқичда //Қизил Ўзбекистон , 1937.1.04. –Б. 24.